

**FERMER XO'JALIKLARINING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN O'RNI VA ROLINI
OSHIRISH BORASIDAGI SA'Y-HARAKATLAR***Do'snazarov Mirjalol**Samarqand davlat chet tillar instituti yoshlar bilan ishlash,**ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i*

Annotatsiya: Ushbu maqola fermer xo'jaliklarining jamiyat hayotida tutgan o'rnini va rolini oshirish borasidagi sa'y-harakatlar borasidagi fikrlar yoritilgan. Mamlakatimizda dehqonlar va fermer xo'jaliklarining jamiyat miqyosidagi o'rnini oshirish borasidagi hukumat ishlar haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Fermer xo'jaligi, Dehqon xo'jaligi, chorva moli, sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar, mahsulot sotish va eksportga chiqarish.

Fermer xo'jaligi xususiy yoki uzoq muddatga ijaraga olingan yerda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanadigan xo'jalik. Fermer xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va faoliyat ko'rsatish tartibi turli mamlakatlarda turlicha bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasi va xususiyatlari, shuningdek, mehnatdan va yerdan foydalanish sharoitlari, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini industrlash va ixtisoslashtirish darajasi, kapital hajmi va sharhi bo'lib hisoblanadi. Bu faoliyat o'ziga xos tamoillar bilan belgilanadi. Ilk va mukammal shakldagi Fermer xo'jaligilari AQSH, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiyada mustamlakachilik siyosati va bo'sh yotgan hamda yerli aholiga tegishli yerlarda koloniyalar tashkil qilish natijasida paydo bo'ldi. XX asrning 1920—1930-yillari AQSH, Kanada, Buyuk Britaniyada, 1950—1960-yillarda esa rivojlangan. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mashinalashgan bosqichga o'tdi, natijada fermerlar bu mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlarining asosiy ishlab chiqaruvchilariga aylandilar. Bu mamlakatlarda Fermer xo'jaligi yerlari xususiy mulk hisoblanadi yoki yer ijaraga olinadi. Fermer xo'jaligida barcha ishlab chiqarish vositalari va yetishtirilgan mahsulot Fermer xo'jaligi boshlig'i, ya'ni fermerning yoki uning a'zolari mulki hisoblanadi. Fermer xo'jaligida, asosan, fermer oila a'zolari, qarindosh urug'lari va mavsumda yollanma ishchilar mehnat qiladi.

O'zbekistonda dastlabki fermer xo'jaligi O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 3-iyulda qabul qilingan „Dehqon xo'jaligi to'g'risida“ qonuniga muvofiq, dehqon xo'jaligi shaklida tashkil etildi, dastlab yirik qishloq xo'jaligi korxonalari tarkibidagi ichki Fermer xo'jaligilari va mustaqil yuridik shaxs sifatidagi Fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatdi. 1990-yillarning oxirlaridan boshlab Fermer xo'jaligini tashkil etish va uning faoliyatiga doir huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining „Fermer xo'jaligi to'g'risida“ qonuni (1998-yil 30-aprel; yangi taxrirda 2004-yil 26 avgust) bilan tartibga solinadi.

O'zbekistonda Fermer xo'jaligilari yerdan ijara asosida foydalanadilar va ularga yer maydonlari 50 yilga yoki 30 yildan kam bo'lmagan muddatga ijaraga beriladi. Ijaraga beriladigan yer maydonlarining eng kam o'lchami paxtachilik va g'allachilikda kamida 10 ga, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlar yetishtirish uchun kamida 1 ga qilib belgilangan. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan Fermer xo'jaligida kamida 30 shartli bosh chorva moli bo'lishi lozim. Bunday xo'jaliklarda bir shartli bosh chorva moli hisobiga

ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'Ichami Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda 0,3 ga, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi sug'oriladigan yerlarda 0,45 ga, sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda esa kamida 2 ga ni tashkil etadi.

O'zbekistonda fermer xo'jaligilari soni 87,6 mingtani, ularga birkirilgan yer maydoni 2148,1 ming ga ni, bitta Fermer xo'jaligining o'rtacha yer maydoni 24,5 ga ni, Fermer xo'jaligida band bo'lganlar soni 603 ming kishini, shu jumladan, yollanma ishchi kuchi 52,4 ming kishini tashkil qildi (2004-yil 1-yanvar).

Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi ham jamiyat hayotida fermer xo'jaligi faoliyatini yuksaltirishga qaratilgan birlashma hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi — O'zRdagi dehqon va fermer xo'jaliklarining ixtiyoriy uyushmasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi "Xususiy tadbirkorlikni, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 22-apreldagi qaroriga ko'ra tashkil etilgan. Uyushma boshqaruvi Toshkent shahrida joylashgan. Uyushmaning asosiy vazifalari: dehqon va fermer xo'jaliklarining huquq va manfaatlarini himoya qilish; xo'jaliklarni shartnoma asosida urug'lik, o'g'itlar, ko'chatlar, nasldor mollar va b. resurelar bilan ta'minlash; xo'jaliklarga ishlab chiqarish, texnologiya, transport, yuridik, axborot, marketing xizmatlari va boshqa xizmatlar ko'rsatish; yetishtirilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotishga ko'maklashish; dehqon va fermer xo'jaliklarini mineral o'g'it va yoqilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash, lizing asosida qishloq xo'jaligi texnikasi sotib olish, banklar va turli jamg'armalardan imtiyozli asosda kreditlar va mikrokreditlar olishda yordam ko'rsatish va boshqalar. Uyushmaning Qoraqalpog'iston Respublikasi uyushmasi, viloyat (12) hamda tuman (116) vakilliklari mavjud. Uyushma safida respublikada faoliyat ko'rsatayotgan 43,8 ming fermer xo'jaligi, 1,8 mln. dehqon xo'jaligi (ularning 8266 tasi yuridik shaxs makrmida) bor (2001). Uyushmaning tavsiyasi bilan joylardagi hududiy vakilliklar qoshida 25 ta mukrbil mashina-traktor parklari (MTP) tashkil qilinib, fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatmoqda. Mahsulot sotish va eksportga chiqarish bo'yicha 98 kooperativ korxona tashkil qilingan.

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, mamalakatimizda fermer xo'jaliklari faoliyati va uni dehqonlar tomonidan davlat sherikchilik asosida shakllantirish hamda jahon standartiga mos faoliyat turiga aylantirish davr va xalq talabi hisoblanadi. Biz bilamizki jamiyatda fermer xo'jaliklarining xalqimiz iste'mol tovarlarini yetkazib berish va davlatimizni iqtisodiy yuksaltirishdagi o'rni beqiyos bo'lib hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdug'aniev A, Abdug'aniev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. - T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi, 2004-304 b.
2. Salimov B.T. va boshqalar. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi.- T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot Jamg'armasi, 2004- 176b.
3. Модель "Сельская профильная школа"- М.: АПК и ППРО, 2004-32 ст. 4. Экономика сельского хозяйства. Учебник, под.ред. Коваленко. Н.Я.М.: -Юркнига, 2004-392 ст.
5. Zokirov O, Pardaev, Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik,- T.: UAJBNT markazi 2003-456 b.